

YOSH PEDAGOGLARNING KASBIY MUVAFFAQIYATIDA SHAXSLARARO MULOQOTNING AHAMIYATI

Payzillayeva Nixola Abdukarimovna

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani

maktabgacha va maktab ta'limi

bo'limiga qarashli 22- umumiy

o'rta ta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh pedagoglarning kasbiy faoliyatida shaxslararo muloqotning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shaxslararo muloqot pedagogning o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar hamda ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishida muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kommunikativ kompetentlik, empatiya, tinglash madaniyati va konstruktiv muloqot ko'nikmalarining yosh pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyatiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Yosh pedagoglarda samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari hamda ta'lim sifatini oshirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yosh pedagog, kasbiy muvaffaqiyat, shaxslararo muloqot, kommunikativ kompetentlik, pedagogik muloqot, empatiya, samarali kommunikatsiya, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati, hamkorlik, muloqot madaniyati, pedagogik faoliyat.

Taraqqiy etayotgan bugungi dunyo, ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan nafaqat chuqur kasbiy bilim va malaka, balki samarali muloqot qilish, jamoada ishlash, o'quvchilar va ota-onalar bilan sog'lom munosabatlarni yo'lga qo'yish kabi kommunikativ kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Ayniqsa, pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh pedagoglar uchun shaxslararo muloqot ko'nikmalarining rivojlanganligi kasbiy moslashuv, pedagogik mahorat va kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shaxslararo muloqot insonlarning o'zaro axborot almashishi,

bir-birini tushunishi, hamkorlikni tashkil etishi hamda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi murakkab psixologik jarayondir. Pedagog faoliyatida muloqot nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy muloqot ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda qulay psixologik muhitni shakllantiradi.

Yosh pedagoglarning kasbiy faoliyatida uchraydigan muammolarning aksariyati muloqot jarayonidagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jumladan, o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish imkoniyatining yo'qligi, ota-onalar bilan hamkorlikdagi muammolar, hamkasblar bilan munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar pedagogning kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va pedagogik muloqot texnologiyalaridan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda shaxslararo muloqot muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning ilmiy qarashlarida muloqotning shaxs rivojlanishi, kasbiy faoliyat samaradorligi hamda ijtimoiy moslashuvdagi o'rnini alohida ta'kidlangan. Ayniqsa, yosh pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlashda kommunikativ kompetentlik, empatiya, refleksiya va konstruktiv muloqot ko'nikmalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra insonlar bilan uzluksiz muloqot qilish jarayoniga asoslanadi. O'qituvchi har kuni o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasi rahbariyati bilan turli shakldagi munosabatlarga kirishadi. Shu sababli pedagogning kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning kommunikativ kompetentligiga bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatni endigina boshlagan yosh pedagoglar uchun shaxslararo muloqot ko'nikmalari kasbiy moslashuvning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik adabiyotlarda shaxslararo muloqot insonlarning o'zaro ta'siri, axborot almashinuvi, bir-birini idrok etishi va tushunishi jarayoni sifatida talqin qilinadi. Muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jihatlari mavjud bo'lib, ular

pedagogik faoliyatda o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Kommunikativ jihat axborot almashishni, interaktiv jihat hamkorlik va o‘zaro ta’sirni, perseptiv jihat esa suhbatdoshni tushunish va idrok etishni ifodalaydi. Yosh pedagogning kasbiy muvaffaqiyati avvalo o‘quvchilar bilan samarali munosabat o‘rnata olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy, ishonchli va hurmatga asoslangan muloqot o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning faolligini rag‘batlantiradi hamda bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi. Aksincha, muloqotdagi qo‘pollik, befarqlik yoki avtoritar yondashuv o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini pasaytirishi mumkin.

Shaxslararo muloqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri empatiya hisoblanadi. Empatiya pedagogning o‘quvchi his-tuyg‘ularini tushunishi, uning ichki kechinmalariga hamdardlik bildirga olishi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishida namoyon bo‘ladi. Empatik munosabat o‘quvchilar bilan psixologik yaqinlikni ta’minlaydi va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Yosh pedagoglarning kasbiy faoliyatida ota-onalar bilan muloqot ham alohida ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan konstruktiv hamkorlik o‘quvchilarning rivojlanishi va tarbiyasida ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Pedagogning ochiq muloqotga tayyorligi, muammolarni birgalikda hal qilishga intilishi va samarali fikr almashishi ta’lim jarayonidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, hamkasblar bilan sog‘lom shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish yosh pedagogning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tajribali pedagoglar bilan fikr almashish, maslahatlashish, metodik tajribalarni o‘rganish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish yosh mutaxassisning kasbiy mahoratini oshiradi. Pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhitning mavjudligi esa kasbiy qoniqish va ish samaradorligini ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlik pedagogning asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kommunikativ kompetentlik o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash, faol tinglash, nizolarni konstruktiv hal etish, auditoriyani boshqarish hamda samarali hamkorlikni tashkil etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sifatlarning rivojlanganligi yosh pedagogning kasbiy muvaffaqiyatga erishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Yosh pedagoglarning kasbiy faoliyatida samarali

muloqotni shakllantirish va rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, muloqot ko'nikmalari tug'ma xususiyat emas, balki maqsadli ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlantiriladigan kasbiy sifatdir. Shu sababli yosh pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri kommunikativ treninglar hisoblanadi. Bunday treninglar davomida pedagoglar faol tinglash, o'z fikrini aniq ifodalash, hissiyotlarni boshqarish, jamoada ishlash va nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tajriba orttiradilar. Treninglar pedagoglarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, muloqotdagi psixologik to'siqlarni bartaraf etish hamda kasbiy faoliyatga moslashishni tezlashtirishga yordam beradi. Shaxslararo muloqotni rivojlantirishda refleksiya ham muhim o'rin tutadi. Refleksiya pedagogning o'z faoliyati, xatti-harakati va muloqot usullarini tahlil qilishi hamda baholashini anglatadi. Yosh pedagog o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali muloqot jarayonini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z-o'zini tahlil qilish kasbiy o'sishning muhim omillaridan biri sanaladi.

Pedagogik faoliyatda emotsional intellektning rivojlanganligi ham samarali muloqotni ta'minlaydi. Emotsional intellekt insonning o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning hissiy holatini anglash, boshqarish hamda ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Emotsional intellekti yuqori bo'lgan pedagoglar o'quvchilar bilan tezroq psixologik aloqa o'rnatadi, ziddiyatli vaziyatlarni oqilona hal qiladi va ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham pedagoglarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Onlayn platformalar, ta'limiy forumlar, vebinarlar va professional hamjamiyatlar orqali yosh pedagoglar tajriba almashish, kasbiy hamkorlikni rivojlantirish va yangi kommunikativ yondashuvlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy kompetentligini muntazam ravishda boyitib borishga xizmat qiladi. Psixolog olimlar muloqotning samaradorligi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan ham bog'liqligini ta'kidlaydilar. Jumladan, ochiqlik,

samimiylilik, bag'rikenglik, sabr-toqat va mas'uliyat kabi sifatlar muloqot jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Shu sababli yosh pedagoglarda mazkur sifatlarni rivojlantirish ham kasbiy tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek psixologlaridan Z. Nishonova, V.Karimova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham muloqotning shaxs rivojlanishi va kasbiy faoliyatdagi o'rnini alohida e'tirof etilgan. Ularning fikricha, pedagogik muloqotning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahorati, psixologik tayyorgarligi va kommunikativ madaniyatiga bevosita bog'liqdir. Shu bois pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Demak, yosh pedagoglarda shaxslararo muloqotni rivojlantirish kasbiy muvaffaqiyatni ta'minlash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda pedagogik faoliyatning insonparvarlik mohiyatini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayonni psixologik va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxslararo muloqot yosh pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi nafaqat o'qituvchining kasbiy bilim va malakasiga, balki uning o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar hamda jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Samarali muloqot pedagog va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirib, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Yosh pedagoglarda kommunikativ kompetentlikning rivojlanganligi ularning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi, pedagogik faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib o'tishiga yordam beradi hamda kasbiy o'sish uchun qulay sharoit yaratadi. Muloqot jarayonida empatiya, refleksiya, faol tinglash, konstruktiv fikr almashish va nizolarni boshqarish ko'nikmalarining mavjudligi pedagogning kasbiy samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida shaxslararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tadbirlar, treninglar va innovatsion yondashuvlar yosh pedagoglarning kommunikativ kompetentligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga

ega ekanligi aniqlandi. Shu bois zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida qarash zarur.

Mavzudan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari va amaliy mashg'ulotlar hajmini kengaytirish.

2. Yosh pedagoglar uchun shaxslararo muloqot, nizolarni boshqarish va samarali kommunikatsiya bo'yicha muntazam psixologik treninglar tashkil etish.

3. Ta'lim muassasalarida tajribali pedagoglar va yosh mutaxassislar o'rtasida mentorlik tizimini rivojlantirish.

4. Pedagoglarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan seminar va treninglarni yo'lga qo'yish.

5. Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida kommunikativ texnologiyalardan va zamonaviy axborot vositalaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish.

6. Pedagoglarning o'zini-o'zi tahlil qilish va reflektiv faoliyatini rivojlantirish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirish.

Bir so'z bilan aytganda, yosh pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyatida shaxslararo muloqotning o'rni beqiyos bo'lib, uni rivojlantirish ta'lim sifati, pedagogik faoliyat samaradorligi va shaxsiy kasbiy o'sishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Hasanov, D.Abdumadjidova, N. Atayeva. Psixologiya (psixologiya nazariyasi va amaliyoti asoslari) Ma'ruza matni-Toshkent 2016, 5-bet. 3. S.L.
2. Rubinshteyn. Umumiy psixologiya asoslari 2006.
3. Dilova N.G. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar xamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3, 63-68 b

4. Safarova R.G. Didactic conditions of forming creative thinking skills in student. International scientific and practical conference “trends of modern science and practice”. Ankara, Turkey 2023. <https://zenodo.org/badge/DOI/10.5281/zenodo.7786879.svg>